

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.05/30.12.2019.Qx.13.02 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
NUKUS FILIALI**

ASTANKULOV AZAMAT FARXATOVICH

**QORAQALPOQ ZOT TIPIGA MANSUB QAMAR
RANG-BARANGLIKDAGI QORAKO‘L QO‘YLARNING
BIO-MAHSULDORLIK XUSUSIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

06.02.03 - Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT–2025

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по сельскохозяйственным наукам**

**Abstract of the dissertation of doctor of philosophy (PhD)
in agricultural sciences**

Astankulov Azamat Farxatovich

Qoraqalpoq zot tipiga mansub qamar rangbaranglikdagi qorako‘l qo‘ylarning bio-
mahsuldorlik xususiyatlarini takomillashtirish..... 3

Астанкулов Азамат Фархадович

Совершенствование био-продуктивных особенностей каракульских овец
расцветки камар каракалпакского породного типа..... 21

Astankulov Azamat Farkhadovich

Improving the bio-productive features of Karakul sheep of the color Kamar of the
Karakalpak breed type..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published work 43

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.05/30.12.2019.Qx.13.02 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
NUKUS FILIALI**

ASTANKULOV AZAMAT FARXATOVICH

**QORAQALPOQ ZOT TIPIGA MANSUB QAMAR
RANG-BARANGLIKDAGI QORAKO‘L QO‘YLARNING
BIO-MAHSULDORLIK XUSUSIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

06.02.03 - Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT–2025

Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Qx1158 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filialida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida www.tdau.uz, O'zbekiston Milliy axborot agentligi hamda «Ziynet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Turganbaev Ruzimbay Urazbayevich
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Soatov Utkir Rajabovich
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Xatamov Asror Xudoyberdiyevich
qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim


Yetakchi tashkilot:

Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/30.12.2019.Qx.13.02 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil "19" 08 soat 10⁰⁰ dagi majlisi bo'lib o'tadi. (Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko'chasi, 2 uy. tel: (+99871) 260-48-00; faks: (+99871) 260-38-60; e-mail: tuag-info@edu.uz) Toshkent davlat agrar universiteti ma'muriy binosi. 2-qavat, anjumanlar zali.)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (553375-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko'chasi, 2-uy. ToshDAU ARM binosi, 1-qavat. Tel: (+99871) 260-50-43.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "31" 07 kuni tarqatildi.
(2025 yil "26" 06 dagi 19 raqamli reestr bayonnomasi)



Sh.R.Umarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,

Sh.A.Abdurasulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy

Q.J.Shakirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, q.x.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Qo‘ychilik sohasi jahon chorvachiligining muhim tarkibiy qismi hisoblanib, dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida aholini moddiy manfaatdorligini oshirish bilan bir qatorda, oziq ovqat va yengil sanoatni xom ashyo bilan ta‘minlovchi asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Dunyo bozorining bugungi kundagi go‘sht, sut, yog‘, teri va jun kabi qimmatli mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojidan kelib chiqib, qo‘ychilik rivojlangan davlatlarda ekologik jihatdan cho‘l sharoitiga moslashgan, irsiy jihatdan turli noqulay sharoitlarga chidamli, xo‘jalik qimmatli belgilari yuqori xususiyatlari ega bo‘lgan turli zot tiplarini ko‘paytirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Butun jahon oziq ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) ning ma‘lumotlariga ko‘ra «... dunyoning 40 ortiq davlatlarida 48,6 mln boshdan ko‘proq qorako‘l qo‘y zotlari ko‘paytirib kelinmoqda»¹. So‘ngi yillarda jahon miqyosida rangli qorako‘l terilarga, aynan sur rangli terilarga ichki va tashqi bozorlarda talab ortib borayotganligi sababli sur rangli turli rangbaranglikdagi qorako‘l qo‘ylar nasldorlik va mahsuldorlik xususiyatlari hamda, qo‘chqorlar genotipini yanada takomillashtirish borasida ilmiy tadqiqotlarini yanada kengaytirish talab etiladi.

Dunyo qorako‘lchiligi rivojlangan davlatlarda qorako‘l qo‘ylari bosh sonini ko‘paytirishda ularning xo‘jalik qimmatli belgilarini tadqiq etish bilan bir qatorda, biologik, mahsuldorlik, urchitish, va reproduktiv belgilarini yaxshilashga alohida e‘tibor qaratib kelinmoqda. Bu borada Qozog‘iston Turkmaniston, Janubiy Afrika Respublikasi Namibiya, Afg‘oniston Rossiya va Moldava kabi yirik qo‘ychilik rivojlangan davlatlarda qorako‘l qo‘ylar uchun maxsus ozuqa maydonlarini tanlash va yaratish, cho‘l ozuqabop ekinlari urug‘chiligini tashkil etish, cho‘llarda yaylov chorvachiligini rivojlantirish har bir hududiy ekologik holati va mintaqaviy joylashuvidan kelib chiqib turli rangbaranglikda qorako‘l qo‘ylarni joylashtirish va ularni naslchilik ishlarini tashkil etish orqali ko‘paytirish borasida yangi ilmiy asoslangan uslubiyotlar ishlab chiqilmoqda. Hozirgi davrda seleksiya va naslchilik ishlarini jadallashtirish teri sifatini yaxshilashda ta‘sir ko‘rsatuvchi tashqi muhit omillarini aniqlash, turli ekologik sharoitlarda parvarishlanayotgan qorako‘l qo‘ylarda belgi va ranglarini namoyon bo‘lishini tadqiq etish usullarini ishlab chiqish orqali eksportbop teri mahsulotlari yetishtirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda bugungi kunda qorako‘l qo‘ylarini urchitish va ko‘paytirish bilan bir qatorda, qo‘y go‘shti va sut mahsulotlari ishlabchiqarish miqdorini oshirish va sifatini yaxshilash shuningdek aslzotlik belgilari, ya‘ni teri gul xususiyatlari, rangi va rangbarangligi, jun tolasining jozibadorligi bilan baholanadigan eksportbop qorako‘l teri va jun ishlab chiqarish borasida keng miqyosidagi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. «...mamlakatimizda qorako‘lchilik tarmog‘i korxonalarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini texnik va texnologik jihatdan

¹ <https://bigenc.ru/agriculture/text/2044645>

yangilash, «O‘zbek qorako‘l» brendini yaratish va dunyo miqyosida targ‘ib qilish,»² borasida aniq ko‘rsatmalar berilgan. Oxirgi yillarda qoraqalpoq qamar rangbaranglikdagi qorako‘l qo‘ylarining nasldorlik xususiyatlarini baholash, sur qo‘ylarning irsiy xususiyatlarini avlodlarga o‘tilishini o‘rganish, sur qorako‘l qo‘zilar teri va jun mahsulotlari sifatini yaxshilash hamda sut mahsuldorligini tahlil qilishdek dolzarb masalalarga yetarlicha e‘tibor qaratilmagan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-martdagi PQ-3603-son “Qorako‘lchilik sohasini jadal rivojlantirish to‘g‘risida”gi, 2019-yil 16-avgustdagi PQ-4420-son “Qorako‘lchilik tarmog‘ini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 2-sentyabrdagi PQ-4817-son “O‘zbekiston Respublikasi Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarorlari, 2020-yil 2-sentyabrdagi PF-6059-son “O‘zbekiston Respublikasida pillachilik va qorako‘lchilikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, 2021-yil 9-fevraldagi PQ-4984-son “Qorako‘lchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustivor yo‘nalishi doirasida bajariladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorijiy va MDH davlatlari olimlari, qorako‘l qo‘ylari podalarini qayta tiklash usullari, qorako‘l qo‘ylarning morfologiyasini tadqiq etish, qorako‘l qo‘ylarning yangi tipni yaratish, qorako‘l qo‘ylarni fenotipik bo‘yicha baholash, qo‘ylarning mahsuldorligini oshirish, qorako‘l qo‘ylarning cho‘l sharoitida biologik va mahsuldorligini oshirishni ularni cho‘l sharoitiga moslashtirish hamda qorako‘l qo‘ylarning seleksiya va bosh sonini ko‘paytirish borasida K.Martins, Dj.Piters, A.A.Sayed, A.M.Musavi, A.M. Azimi, S.Evdodienko, S.V.Mogil'nits'ka, N.Kudrik, V.V.Georgievich, M.G.Chabaev, X.Jalolov, Sh.R.Xarramov, A.S.Axmetshiev, M.Butaev va S.Alimbekovlar tomonidan bir qator tadqiqotlar olib borilgan.

O‘zbekiston Respublikasida esa, Yu.Jumaniyazov, M.D.Zakirov, Q.D.Ochilov, A.Gaziev, R.U.Turganbaev, A.Xatamov, A.Urimbetovlar tomonidan Qoraqalpoq zot tipidagi qorako‘l qo‘ylari rang-barangligining ifodalanishi, rangning teri sathi tekisligi, jun tolasi qoplaminig sifatini va konstitutsional mustahkamligi bo‘yicha seleksiyalash, belgilarning irsiylanish va o‘zgaruvchanlik xususiyatlari, naslchilik ishini tashkillashtirish, suruvni ko‘paytirish, mahsulot sifatini yaxshilash hamda etologiyasi bo‘yicha tadqiqotlar olib borilib ijobiy natijalarga erishilgan.

Ta’kidlash lozimki, qoraqalpoq zot tipiga mansub qamar rangbaranglikdagi qorako‘l qo‘ylarning irsiy salohiyatidan foydalanib, ularning terisi assortimentini ko‘paytirish ishlari ma’lum darajada tarmoqning iqtisodiy samaradorligini oshirish bilan birgalikda, klaster va fermer xo‘jaliklari o‘rtasida yangi raqobatni

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi “Qorako‘lchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4984-son Qarori. Toshkent 2021-y.

shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda Respublikamizda qoraqalpoq zot tipiga mansub sur rangli qorako‘l qo‘ylar bosh sonini oshirish, ularning irsiy salohiyatidan foydalangan holda, turli rangbaranglikdagi qorako‘l terilarini yetishtirish, ularning barqaror selektsion-texnologik usullarini ishlab chiqish va uni joriy qilish dolzarb bo‘lib hisoblanadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot ishlari Samarqand veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining №0012 raqami bilan ro‘yxatga olingan “Qorako‘l zotli qo‘ylarning nasliy imkoniyatlaridan foydalanishning samarali modulini ishlab chiqish” mavzusi doirasida bajarilgan (2019-2023 yy.).

Tadqiqotning maqsadi qoraqalpoq tipiga mansub qamar rangbaranglikdagi qorako‘l qo‘ylarining biologik va mahsuldorlik xususiyatlarini aniqlash asosida ushbu rangbaranglikdagi qo‘zilar olish salmog‘ini ko‘paytirish usullarini ilmiy jihatdan asoslash hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari quydagilardan iborat:

qamar rangbaranglikdagi qoraqalpoq sur qorako‘l qo‘ylarining yosh dinamikasida o‘shish va rivojlanish xususiyatlarini aniqlash;

tajribadagi qo‘zilarning yoshi dinamikasida fiziologik ko‘rsatkichlarini aniqlash;

qamar rangbaranglikdagi sur qorako‘l qo‘ylarining irsiy xususiyatlarini avlodlariga o‘tkazib berish qobiliyatini aniqlash;

qamar rangbaranglikdagi sur qorako‘l qo‘zilar teri sifat belgilarining namoyon bo‘lish xususiyatlarini aniqlash;

qamar rangbaranglikdagi sur qorako‘l qo‘ylarining jun mahsuldorligi hamda jun qoplaminin morfologik tarkibiy xususiyatlarini aniqlash;

tajribadagi qo‘ylarning tug‘im yoshi kesimida sut mahsuldorligini aniqlash;

qamar rangbaranglikdagi sur qorako‘l qo‘ylarini urchitishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning obekti Qoraqalpoq zot tipiga mansub qamar rangbarangliklaridagi sur qorako‘l qo‘chqorlari, sovliqlari, qo‘zilar, qorako‘l terilari, jun, sut va go‘sh t namunalaridan iborat.

Tadqiqotning predmeti bo‘lib, qoraqalpoq zot tipiga mansub qamar rangbaranglikdagi qo‘ylar rangbarangligining avloddan-avlodga berilish xususiyatlari, qo‘zilarning konstitutsiya tipi, o‘shishi va rivojlanishi, eksterer ko‘rsatkichlari, teri sifat ko‘rsatkichlari, jun, sut va go‘sh mahsuldorlik ko‘rsatkichlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy tadqiqotlarni bajarishda qo‘zilarni baholashda S.Yu.Yusupov va boshqalarning (2015) “Qorako‘lchilikda naslchilik ishlarini yuritish va qo‘zilarni baholash (bonitirovka qilish) bo‘yicha qo‘llanma”, qo‘ylarning jun mahsuldorligi GOST-8439-57, go‘sh mahsuldorligi Butunittifoq chorvachilik ilmiy-tadqiqot institutining “Qo‘ylarning go‘sh mahsuldorligini o‘rganish” uslubiy tavsiyalari, o‘rtacha arifmetik qiymat (X), uning xatosi (S_x), o‘zgaruvchanlik

koefitsiyenti (C_v) va ko'rsatkichlarning ishonchlilik darajasi (P) N.A.Ploxinskiyning (1969) "Zootexniklar uchun biometriya bo'yicha qo'llanma" lari asosida amalga oshirildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor turli variatsiyalardagi qamar rangbaranglikdagi qorako'l qo'zilarining konstitutsiya tipi, mustahkam tipga ega qizil qamar qo'zilar, ochiq qamarga nisbatan 5,8 % ga va qora qamarga nisbatan 12 % ga yuqori bo'lishi aniqlandi va konstitutsiya tiplarining shakllanishi qamar rangbaranglikdagi qo'zilarining teri sifatiga bog'liqligini ko'rsatdi;

turli variatsiyadagi qamar rangbaranglikdagi qo'ylarning tirik vazn ko'rsatkichlari yangi tug'ilgan davrda qora qamar birmuncha yirikroq bo'lib, ochiq qamarga nisbatan 0,15 kg. ga va qizil qamarga nisbatan 0,25 kg. ga ustunlik qilib farqlangan bo'lsada yosh dinamikasida dag'al konstitutsiyali hayvonlar salmog'i yuqori bo'lishi hisobiga 18 oylikda ko'rsatkichlar tenglashishi aniqlandi;

Qamar rangbaranglikdagi qorako'l qo'ylarning jun mahsuldorligi ularning qirqim muddatiga bog'liq bo'lib, bahorgi jun mahsuldorligi kuzgi jun mahsuldorligidan yuqori bo'lib, ochiq qamarda 191,2, qizil qamarda 183,7 va qora qamarda 178,1 grammga ustunlik qilganligi aniqlandi;

qizil qamar variatsiyalaridagi qo'zilar terisida rangbaranglikning ifodalanishi, yaltiroqligi va bir tekislilik ko'rsatkichlari yuqori bo'lishi sababli boshqa variatsiyalarga nisbatan iqtisodiy jihatdan 20,0-40,0% samarali bo'lishi aniqlandi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qoraqalpog'iston sharoitida ilk bor turli variatsiyalardagi qamar rangbaranglikdagi qorako'l qo'ylarining biologik va mahsuldorlik ko'rsatkichlarini majmuaviy o'rganish asosida takomillashtirish yo'llari ishlab chiqilgan;

qamar rangbaranglikdagi qo'ylarning turli variatsiyalari kesimida tirik vazn, eksterer va tana indeklari ko'rsatkichlari yangi tug'ilgan davrda farqlangan bo'lsada dag'al konstitutsiyali hayvonlar salmog'i yuqori bo'lishi hisobiga voyaga yetgan davrda ko'rsatkichlar tenglashishi aniqlangan;

rangbaranglikning ifodalanishi, yaltiroqligi va bir tekislilik ko'rsatkichlari yuqori bo'lishi sababli qizil qamar variatsiyalaridagi qo'zilar boshqa variatsiyalarga nisbatan iqtisodiy jihatdan samarali bo'lishi aniqlangan;

qamar rangbaranglikdagi qorako'l qo'ylarning jun mahsuldorligi ularning qirqim muddatiga bog'liq bo'lib, barcha variatsiyalarda bahorgi jun mahsuldorligi kuzgi jun mahsuldorligidan yuqori bo'lganligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya tadqiqotida zamonaviy uslub va vositalardan foydalanganligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali Veterinariya va zootexnologiya fakulteti aprotatsiya komissiyasi tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari va birlamchi materiyallarga ijobiy baho berilganligi, olingan ma'lumotlarga kichik tanlamalar usulida statistik ishlov berilganligi, joriy etish dalolatnomalar bilan tasdiqlangani va ilmiy-tadqiqot natijalari yetakchi ilmiy va ilmiy-ommabop nashrlarda chop qilinganligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, qoraqalpoq tipiga mansub qamar rangbaranglikdagi qorako‘l qo‘ylarining bio-mahsuldorlik xususiyatlarini takomillashtirishni majmuaviy o‘rganish asosida, qamar rangbaranglikdagi qorako‘l terilar ishlab chiqarishni ko‘paytirish usullari ilmiy asoslangan, qamar rangbaranglikdagi qo‘ylarning bio-mahsuldorlik xususiyatlaridan foydalangan holda o‘sish va rivojlanish, qorako‘l teri, jun, sut va go‘sht mahsuldorligi xususiyatlari ilmiy asoslangan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qamar rangbaranglikdagi qoraqalpoq sur qorako‘l qo‘ylarining bio-mahsuldorlik xususiyatlarini o‘rganish asosida mahsuldorlik xususiyatlarini takomillashtirish usullari ishlab chiqilganligi, teri, jun, sut va go‘sht mahsuldorligini oshirish usullari ishlab chiqilib, amaliy tavsiyalar berilganligi hamda iqtisodiy jihatdan samarali ekanligi bilan ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qoraqalpog‘iston sharoitida qamar rangbaranglikdagi qoraqalpoq sur qorako‘l qo‘ylarining biologik va mahsuldorlik xususiyatlarini aniqlash bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

qoraqalpoq sur qamar qorako‘l qo‘ylarining “qo‘zi ayirish” davridan boshlab yaylov sharoitida yosh qo‘zilarni semirtirish usuli Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qorao‘zak tumani qorako‘lchilikka ixtisoslashgan “Nurtilek qaraozek” fermer xo‘jaligida joriy qilingan. (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2025-yil 7-yanvardagi № 33/01-05-11 son ma‘lumotnomasi). Natijada qoraqalpoq sur qamar qorako‘l qo‘ylarining biologik va mahsuldorlik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, seleksiyalash imkoniyatlarini oshirish usullarini qo‘llash natijalariga ko‘ra, asosan qamar variatsiyalari kesimida go‘sht ishlab chiqarish rentabellik darajasi qizil qamarda 69,9 %, ochiq qamarda esa 62,9 % va qora qamarda bo‘lsa, 56,9 %-ni tashkil qilgan.

qamar sur terilar miqdorini oshirish va ulardan naslchilik ishlarida samarali foydalanish usuli Qoraqalpog‘iston Respublikasi Taxtako‘pir tumani qorako‘lchilikka ixtisoslashgan «QR Qorako‘l uyushmasi qorako‘lchilik ilmiy naslchilik tajriba stantsiyasi»da joriy qilingan. (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2025-yil 7-yanvardagi № 33/01-05-11 son ma‘lumotnomasi). Natijada qorako‘l sur qamar qo‘ylarining bio-mahsuldorlik xususiyatlarini majmuaviy tadqiqot qilish borasidagi olingan natijalar sur qamar terilarining rentabellik darajasi qizil qamarda 73,3 %, ochiq qamarda 53,3 %-ni va qora qama esa, 33,3 %-ni tashkil qilgan.

qimmatli qizil qamar terilar miqdorini oshirish va ulardan samarali usuli Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ellikqala tumani qorako‘lchilikka ixtisoslashgan “Chori surchi” fermer xo‘jaligida joriy qilingan. (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2025-yil 7-yanvardagi № 33/01-05-11 son ma‘lumotnomasi). Natijada qoraqalpoq sur qamar qorako‘l qo‘ylarining “qo‘zi ayirish” davridan boshlab yaylov sharoitida yosh qo‘zilarni semirtirish tajribalari joriy qilindi natijada xo‘jalik iqtisodiy 6-7 %-ga oshishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishi bo‘yicha bajarilgan

tadqiqot natijalari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qorao‘zak tumani “Nurtilek qaraozek” fermer xo‘jaligining ishlab chiqarish yig‘ilishlarida (2020-2023 yy.), Samarqand veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali aprobatsiya komissiyasi (2021-2023 yy.) tomonidan, Zootexnologiya kafedrasida yig‘ilishlarida (2022-2023 yy.) hamda 2 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy–amaliy konferentsiyalarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining elon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 9 ta, shu jumladan xalqaro va respublika ilmiy–amaliy konferentsiya materiallari to‘plamida 4 ta, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta, shundan 2 ta xorijiy nashrlarda ilmiy maqolalar va 1 ta tavsiyanoma chop etilgan.

Dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosalar va ishlab chiqarishga takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 110 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot ishlarining dolzarbligi va zarurati, O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga, oliy ta‘lim muassasaning ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga mosligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqot usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ishonchligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi, dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning “**Adabiyotlar sharxi**” nomli birinchi bobida qo‘ylar biomahsuldorlik xususiyatlariga ta‘sir etuvchi omillar va qoraqalpoq sur qo‘ylarini seleksiyalash bosqichlari, hozirgi holati urchitish istiqbollari yo‘nalishida xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari tahlil qilingan va tegishli xulosalar shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning “**Tadqiqot manbai va usullari**” deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot o‘tkazish joyi, usullari, tadqiqot joyining iqlim va yaylov sharoitlari hamda qamar rangbaranglikdagi qo‘ylar tavsifi bayon qilingan.

Tadqiqotlarning tajriba qismi 2020-2023 yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasining Qorao‘zak tumani “Nurtilek qaraozek” fermer xo‘jaligida olib borilgan. Tadqiqotning obekti sifatida qoraqalpoq zot tipiga mansub qamar rangbaranglikdagi sur qorako‘l qo‘chqorlari, sovliqlari, qo‘zilari, qorako‘l terilari, jun, sut va go‘sh namunalari tanlangan. Tadqiqotlar davomida qamar rangbaranglikdagi qorako‘l qo‘ylarining o‘sish va rivojlanish xususiyatlari, konstitutsiyasi, yosh dinamikasida klinik va gemotologik ko‘rsatkichlari, qo‘zilar terisining ipaksimonligi va yaltiroqliligi, gullarining uzunligi va kengligi, rangbaranglikning ifodalanishi, gullarning joylashishi, sinfi, jun mahsuldorligi, junning fizik xususiyatlari, jundorlik koeffitsiyenti, sut mahsuldorligi va sutining kimyoviy tarkibi, go‘sh mahsuldorligi, tadqiqotning iqtisodiy samaradorligi va tajribalarda olingan ma‘lumotlarga biometrik ishlov berishda qo‘llanilgan usul va

uslublar bayon qilingan.

Dissertatsiyaning “**Qorako‘l qo‘ylarining biologik xususiyatlari**” nomli uchinchi bobida qo‘zilarning tirik vazni, eksterer o‘lchamlari, tana tuzilish indeksleri yoshi dinamikasida farqlanishi, qo‘zilarning konstitutsional xususiyatlari, fiziologik va qon tahlili ko‘rsatkichlari bayon qilingan.

Qorako‘l qo‘ylari konstitutsiya tiplari ma‘lum bir zot ichidagi individual xususiyatlarini mujassamlovchi asosiy mahsuldorlik ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq bo‘lib, hayvonning irsiy qimmatlilikini, hayotchanlik, serpushtlik va tashqi ta’sirlarga moslashuvchanlik xususiyatlarini baholashning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Shuni ta’kidlash joizki, qorako‘l qo‘ylarining asosiy mahsuloti bo‘lgan qorako‘l terilarining sifatini yaxshilashda ko‘p tadqiqotchilar va chorvadorlar jun konstitutsional tiplari bo‘yicha seleksiya ishlarini olib borganlar.

Qo‘zilarning konstitutsional xususiyatlarini o‘rganish natijalari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Qo‘zilarning konstitutsional xususiyatlari (2020)

Qamar variatsiyalari	Olingan qo‘zilar, bosh	Konstitutsiya tiplari, % ($X \pm S_x$)		
		Mustahkam	Dag‘al	Nozik
Ochiq qamar	31	67,7±5,54	22,6±2,17	9,7±0,69
Qizil qamar	34	73,5±6,13	14,7±1,47	11,8±1,01
Qora qamar	26	61,5±4,87	19,2±1,34	19,3±1,72

Jadval ma‘lumotlari tahlildan aytish mumkinki, konstitutsiya tiplari qo‘ylarning hayotchanlik xususiyatlarini, tashqi muhitga moslashuvchanligini, umuman hayvonning biologik mustahkamligini va nihoyat olinadigan mahsulot miqdori va sifatini taminlashda muhim biologik salohiyati hisoblanadi.

Avlodlarda konstitutsiya tiplarining shakllanishi qo‘zilarning teri sifatiga ma‘lum darajada bog‘liqligini ko‘rsatadi. Bunda mustahkam konstitutsiya tipiga mansub qo‘zilarning eng ko‘p salmog‘i qizil qamar qo‘zilarda bo‘lib (73,5±6,13), eng kam salmog‘i esa, qora qamar avlodlarda (61,5±4,87) qayd etildi va oraliq holatni ochiq qamar (67,7±5,54) qo‘zilar egalladi. Shuni ta’kidlash lozimki, qo‘zilar rangbaranglik kesimida ochiq qamarda dag‘al tipga mansub qo‘zilar (22,6±2,17) biroz yuqori ekanligini ko‘rsatdi. Ochiq qamar (7,9%ga) va qora qamar rangbaranglikdagi qo‘zilarda (4,5%-ga) qizil qamarga nisbatan dag‘al tipga mansub qo‘zilar salmog‘i usutunlik qildi. Bunday holat xo‘jalikda konstitutsiya tiplari bo‘yicha olib borilayotgan seleksiya ishlarining sustligidan dalolat beradi.

Qorako‘l qo‘ylarining tirik vazni ularning mahsuldorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularning sog‘lomligini va nihoyat yashovchanligini belgilovchi muhim xususiyat hisoblanadi. Imkon qadar ushbu ko‘rsatkichning yuqori holatini, ya’ni qo‘ylarning semizlik darajasini bir maromda saqlash sog‘lomlik, yuqori mahsuldorlik, konstitutsional mustahkamlik, hayotchanlik, olinadigan avlodlarning yaxshi o‘ssishi va rivojlanishini ta’minlaydi.

Qo‘zilar tirik vazni ko‘rsatkichlarini o‘rganish natijalari 2-jadvalda umumlashtirilgan.

2-jadval

Qo'zilarining tirik vazni va uning yoshiga dinamikasida o'zgarishi, kg (2020)

Qamar variatsiyalari	n	Tajriba hayvonlari yoshi ($X \pm S_x$)			
		Tug'ilganda	4-4,5 oylik	12 oylik	18 oylik
Och qamar	25	3,59±0,12	25,09±0,50	31,60±0,73	36,83±0,96
Qizil qamar	25	3,49±0,08	25,71±0,84*	30,60±0,58	35,45±0,78
Qora qamar	25	3,74±0,05*	26,18±0,95	31,29±0,74	35,91±0,85
O'rtacha	75	3,60±0,08	25,66±0,76*	31,16±0,68	36,06±0,86

*p<0,001

2-jadval ma'lumotlarida, yangi tug'ilgan davrda qora qamar tengdoshlariga nisbatan birmuncha yirikroq (3,74±0,05), ya'ni ochiq qamarga nisbatan, 0,15 kg.ga va qizil qamarga nisbatan 0,25 kg.ga ustunlik qildi. Ushbu ko'rsatkich 4-4,5 oylik davriga kelib tendentsiya saqlanib qolgan holda, shunga mutanosib ravishda 1,09 va 0,47 kg.ga teng bo'ldi. Bunday rangbaranglik doirasidagi farqlanishlarni 12-oylik davrida ham kuzatish mumkin. Jinsiy voyaga etgan katta yoshdagi (18 oylik) qo'ylarda tirik vazni bo'yicha o'zgarishlar saqlanib qoldi, ya'ni qizil qamar 35,45±0,78 kg.ga, ochiq qamar 36,83±0,96 kg.ga va qora qamar esa 35,91±0,85 kg.ga teng bo'ldi. O'rtacha, rangbarangliklar bo'yicha bu ko'rsatkich 36,06±0,86 kg.ni tashkil qildi.

Xulosa tariqasida aytish mumkinki, yosh dinamikasida qo'zilarining tirik vazni ko'rsatkichlarining o'zgarishi ular rangbarangligiga bog'liq holda ochiq va qora qamarga, qizil qamarga nisbatan birmuncha yirikroq bo'lishi kuzatildi. Bizning fikrimizcha, bunday holatlarni ular orasidagi dag'al konstitutsiya tiplari ulushi birmuncha yuqoriroq bo'lganligi va bunday holat hayvonlar tirik vazniga o'z ta'sirini ko'rsatishi bilan izohlash mumkin.

Qamar rang-baranglik qo'ylarning turli variatsiyasida o'sish tezligi quyidagi 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Tirik vaznning mutlaq, kunlik o'sishi ko'rsatkichlari, kg ($X \pm S_x$) (2020)

Qamar variatsiyalari	n	O'sish ko'rsatkichlari	Tajriba hayvonlari yoshi		
			Tug'ilgandan 4-4,5 oygacha	4-4,5 oydan 12 oygacha	12 oydan 18 oygacha
Och qamar	25	Mutlaq o'sish, kg	21,5±0,51	6,51±0,95*	5,23±1,18
		Kunlik o'sish, g	169,36±7,31	27,86±3,58*	29,05±6,57
Qizil qamar	25	Mutlaq o'sish, kg	22,13±1,02	4,89±0,96	4,85±1,14
		Kunlik o'sish, g	173,42±4,87	21,04±3,66	26,94±6,48
Qora qamar	25	Mutlaq o'sish, kg	22,44±0,95	5,03±1,12	4,62±1,01
		Kunlik o'sish, g	175,97±3,59	21,7±4,39	25,66±5,61

*p<0,001

3-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarda tug'ilgandan 4-4,5 oygacha bo'lgan davrda mutlaq o'sish ko'rsatkichlari ochiq qamarda 21,5±0,51 kg.ni tashkil qilgan bo'lsa, qizil qamarda 22,13±1,02 kg. va qora qamar esa 22,44±0,95 kg.ni tashkil qildi.

Ochiq qamar rangbaranglikdagi tajriba hayvonlari yosh dinamikasida mutlaq o'sish ko'rsatkichlarini 100% deb qabul qilinsa, qizil qamarda tug'ilgandan 4-4,5 oygacha bo'lgan davrda 2,93% ga, qora qamarda 4,37% ga ustunlik qilgan, 4-4,5 oydan 12 oygacha davrdagi mutlaq o'sish shunga mos ravishda -2,4 va -3,9% ga tendentsiya saqlanib qolgan. 12 oydan 18 oygacha bo'lgan davrda bu ko'rsatkich shunga mutanosib ravishda -7,26 va -11,7% ga farqlanishlar bo'ldi. Bunday ko'rsatkichlar kunlik o'sish ko'rsatkichlarida ham saqlanib qoldi va mutlaq o'sish ko'rsatkichlarini to'lig'icha tastiqlaydi.

Bizning tajriba ishlarimizda qo'ylarni qamar rangbarangligining variatsiyalari bo'yicha juftlashda rangbaranglikning avloddan-avlodga o'tishi ma'lumotlari 4-jadvalda keltirilgan.

Qoraqalpoq sur terilariga bo'lgan talab ichki va tashqi bozorlarda ortib bormoqda. Respublikamiz soha olimlari va chorvadorlari oldidagi asosiy vazifa qoraqalpoq sur qo'ylarning qimmatbaho teri beruvchi qo'ylar bosh sonini ko'paytirish, qimmatbaho va kamyob rangli sur qorako'l sifatini yaxshilash va yuqori mahsuldor ixtisoslashtirilgan qo'y podalarini yaratishdan iboratdir. Ushbu yo'nalishdagi ishlarni bajarishda qoraqalpoq tipiga mansub sur qo'ylarni tanlash va juftlash usullarini takomillashtirish orqali ilmiy tadqiqotlarni genofondni saqlashga qaratish bugungi kunning kechiktirib bo'lmas dolzarb masalasi bo'lib hisoblanadi.

Geterogen va gomogen juftlashda rangbaranglikning avloddan-avlodga o'tishi ma'lumotlarida (4-jadval) keltirilishicha, QQxQQ juftlashda qizil qamar rangbaranglikdagi qo'zilar ulushi 78,5±5,75% ni, ochiq qamar 1,9±1,01% ni, qora qamar 5,9±3,3% ni tashkil qilgan bo'lsa, bunday juftlashda, 7,9±3,78 shabdar rangbaranglikdagi, 3,9±2,71%, chaqir qo'zilar olinishi kuzatildi.

4-jadval

Geterogen va gomogen juftlashda rangbaranglikning avloddan-avlodga o'tishi (2021)

Juftlash turi	n	Qo'zilarining rangbarangligi, %					
		QQ	OQ	TQ	ShD	ChK	boshqalar
QQ xQQ	51	78,5±5,75	1,9±1,01	5,9±3,3	7,9±3,78	3,9±2,71	1,9±1,01
QQ xOQ	39	46,1±7,98	41,0±7,88	2,6±2,55	5,1±3,52	2,6±2,55	2,6±2,55
QQ xTQ	34	41,2±8,44	-	44,1±8,5	5,9±4,04	5,9±4,04	2,9±2,88

QQ –qizil qamar, OQ –oq qamar, TQ –qora qamar, ShD – shabdar, ChK – chaqir

QQxOQ juftlashda qizil qamar ulushi 46,1±7,98% ni tashkil qilgan bo'lsa, ochiq qamar qo'zilar ulushi 41,0±7,88% ni tashkil qildi va shabdar qo'zilar 5,1±3,52% bo'ldi. QQxTQ juftlashda 41,2±8,44% qizil qamar qo'zilar olingan bo'lsa, qora qamar qo'zilar 44,1±8,44% ni tashkil qildi.


Xulosa tariqasida shuni aytish mumkinki, qizil qamar qo'ylar bosh sonini oshirish maqsadida gomogen juftlash maqsadga muvofiqdir.

Qorako'l gullari uzunligi va kengligi muhim ko'rsatkichlar bo'lib, teri naviga baho berishda hamda sinfini aniqlashda asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Qorako'l terilarining turli qismlarida jun tolasining turlicha uzunlikda bo'lishining sababi, mazkur qismlardagi tola kurtakchalarining vujudga kelishi va tolalarning teri yuziga o'sib chiqish muddatlari turlichaligidandir.

Qorako‘l embrionining oldingi qismlaridagi follikulalarning paydo bo‘lishi va tolalarning teri yuzasiga o‘tib chiqishi, qo‘zining keyingi qismlaridagiga nisbatan 7-10 kun oldin vujudga keladi.

Teri gullari uzunligi va kengligi bo‘yicha ma’lumotlar 1-rasmda umumlashtirilgan.



1-rasm. Qamar rang-baranglikdagi terilarining o‘rtacha gul uzunligi va kengligi (2021)

Teri gullarining kengligi bo‘yicha ochiq qamar yassi tipdagilarda $13,4 \pm 0,15$ mmni tashkil qilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich qovurg‘asimon tipdagi terilarda $10,6 \pm 0,94$ mmni, jaketbop tipdagilarda esa, $12,3 \pm 0,11$ mmni va kavkaz tipdagilarda $9,3 \pm 0,71$ mm. ekani aniqlandi. Teri gullarining kengligi bo‘yicha, yassi tipdagilarga keng gullar xos ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Qora qamarda gullarining uzunligi ancha uzunlikka ega bo‘lib, jaketbop tipdagilarda $25,8 \pm 0,22$ mm.ni tashkil qilib, ochiq qamarga nisbatan 3,3 mm.ga uzunligi bilan ajralib turdi. Xulosa qilib aytish mumkinki, teri rangi qanchalik ochiq rangda bo‘lishi teri gullarining yirik bo‘lishi bilan tavsiflanadi va aksincha qanchalik qora ranga kirishi teri gullariga ta’sir ko‘rsatib, teri gullarining uzun va kengligi bo‘yicha uzun va o‘rta bo‘lishini taminlaydi

Qoraqalpoq sur qorako‘l terilari assortimentida qamar rangbaranglik sur terilari ichida qizil qamar o‘zining nafisligi, yorqinligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun qoraqalpoq sur qamar terilarida ifodalanishi, tovlanishi va gullarning bir tekisligi ko‘plab belgilar va xususiyatlarni o‘z ichiga olgan kompleks ko‘rsatkich hisoblanib, terining sifatini va qolaversa, uning sinfini belgilovchi xususiyat hisoblanadi.

Sur qorako‘l terilarida qimmatligini a’lo va yaxshi tovlanish darajasi bilan ma’lum darajada baholanadi. Bizning tadqiqotlarimizdagi ushbu a’lo va yaxshi tovlanish darajasi 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. A'lo va yaxshi tovlanish darajasi (2021)

Qamar qo'zilar ranglarining tovlanishi bo'yicha olingan ma'lumotlar (2-rasm) ko'rsatadiki, qizil qamar qo'zilarida a'lo tovlanish darajasi $35,3 \pm 2,08$ % bo'lgan bo'lsa, ochiq qamarga nisbatan 7,3 %ga, qora qamarga nisbatan esa, 11,8 %ga ustunlik qildi. Qizil qamarda yaxshi tovlanish darajasi $56,9 \pm 5,13$ % bo'lgan bo'lsa, qora qamarga nisbatan 9,8 %-ga ustunlik qildi. Shuni ta'kidlash mumkinki, qizil qamarda tovlanish darajasi ochiq va qora qamarga nisbatan yuqori ekanligi isbotlandi.

Qo'zilarining sinflarga taqsimlanishi bu teri sifatini majmuyiy aniqlovchi ko'rsatkichlar yig'indisi bo'lib, qo'zining qaysi sinfga mansubligini belgilaydi. Bu qorako'l terisining bahosini va qo'zilar naslini belgilaydigan asosiy ko'rsatkichdir.

Bizning tajriba ma'lumotlari bo'yicha, qo'zilar sinfini aniqlash natijalari quyidagi 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval

Qamar sur qo'zilarining sinflarga taqsimlanishi, % ($X \pm S_x$) (2021)

Qamar variatsiyalari	Bosh soni	Elita	I sinf	II sinf	Yaroqsiz
Qizil qamar	51	$15,7 \pm 1,2$	$56,9 \pm 4,7$	$21,6 \pm 2,1$	$5,8 \pm 0,4$
Ochiq qamar	39	$10,2 \pm 0,7$	$48,7 \pm 3,5$	$30,9 \pm 2,4$	$10,2 \pm 0,8$
Qora qamar	34	$8,8 \pm 0,6$	$47,1 \pm 4,5$	$26,7 \pm 2,3$	$17,6 \pm 0,9$
O'rtacha	124	$11,57 \pm 0,83$	$50,9 \pm 4,23$	$26,4 \pm 2,27$	$11,2 \pm 0,70$

